



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'Ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	

IJTIMOYIY MEDIA KONTENTLARI ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Suyunov Rustam Sadriddinovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Jizzax mintaqaviy o'quv markazi "Kasbiy tayyorgarlik" sikli
katta o'qituvchisi, katta leytenant

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy media kontentlari orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari pedagogik, ijtimoiy-psixologik va kommunikativ nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Bugungi raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, videokontentlar, onlayn munozaralar, axborot portallari va interaktiv platformalar yoshlarning ijtimoiy ongiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ijtimoiy media kontentlari faqat axborot almashish vositasi emas, balki talabalarda fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy daxldorlik, tanqidiy fikrlash, huquqiy madaniyat hamda raqamli mas'uliyatni rivojlantiruvchi pedagogik omil sifatida qaralishi zarur. Maqolada fuqarolik pozitsiyasi shaxsning jamiyat, davlat, qonun, milliy qadriyatlar va ijtimoiy muammolarga nisbatan ongli, faol va mas'uliyatli munosabati sifatida izohlanadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik yondashuv, kontent tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar ijtimoiy media kontentlari talabalarni passiv axborot iste'molchisidan faol fuqarolik subyektiga aylantirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy media, fuqarolik pozitsiyasi, talaba, oliy ta'lim, media savodxonlik, raqamli fuqarolik, ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of forming students' civic position through social media content from pedagogical, socio-psychological, and communicative perspectives. In today's digital society, social networks, blogs, video content, online discussions, information portals, and interactive platforms directly influence young people's social consciousness. Therefore, social media content should be considered not only as a means of information exchange, but also as a pedagogical factor that contributes to the development of students' civic position, social involvement, critical thinking, legal culture, and digital responsibility. The article interprets civic position as an individual's conscious, active, and responsible attitude toward society, the state, law, national values, and social issues. The study uses theoretical analysis, a comparative-pedagogical approach, content analysis, and generalization methods. The results show that social media content has the potential to transform students from passive consumers of information into active subjects of civic participation.

Key words: social media, civic position, student, higher education, media literacy, digital citizenship, social activity, critical thinking.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы формирования гражданской позиции студентов высших образовательных учреждений посредством контента социальных медиа с педагогической, социально-психологической и коммуникативной точек зрения. В современном цифровом обществе социальные сети, блоги, видеоконтент, онлайн-дискуссии, информационные порталы и интерактивные платформы оказывают непосредственное влияние на социальное сознание молодежи. Поэтому контент социальных медиа необходимо рассматривать не только как средство обмена информацией, но и как педагогический фактор, способствующий развитию гражданской позиции, социальной причастности, критического мышления, правовой культуры и цифровой ответственности студентов. В статье гражданская позиция трактуется как осознанное, активное и ответственное отношение личности к обществу, государству, закону, национальным ценностям и социальным проблемам. В исследовании использованы методы теоретического анализа, сравнительно-педагогического подхода, контент-анализа и обобщения. Результаты показывают, что контент социальных медиа обладает потенциалом превращения студентов из пассивных потребителей информации в активных субъектов гражданского участия.

Ключевые слова: социальные медиа, гражданская позиция, студент, высшее образование, медиаграмотность, цифровое гражданство, социальная активность, критическое мышление.



KIRISH

XXI asrda oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri nafaqat kasbiy bilim va malakaga ega mutaxassislarni tayyorlash, balki mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy jarayonlarga befarq bo'lmagan, huquqiy ongli va fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy qarashlari, axloqiy qadriyatlarini, kasbiy maqsadlari va jamiyatdagi o'rnini anglash jarayoni faol kechadigan bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda yoshlar jamiyatdagi voqealarga munosabat bildirish, ijtimoiy muammolarni baholash, qonuniylik va adolat mezonlarini anglash, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etish kabi fazilatlarini egallaydi. Bugungi sharoitda talabalarning fuqarolik pozitsiyasi faqat auditoriya mashg'ulotlari, darsliklar yoki an'anaviy tarbiyaviy tadbirlar orqali shakllanmaydi.

Raqamli kommunikatsiya maydoni, xususan, ijtimoiy media kontentlari yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy faolligiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan yangiliklar, videoroliklar, blog-postlar, fikr-mulohazalar, memlar, sharhlar, muhokamalar va vizual materiallar talabaning voqelikka munosabatini shakllantiradi. Shu sababli ijtimoiy media kontentlarini pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish fuqarolik tarbiyasining zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik pozitsiyasi shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini anglashi, ijtimoiy hayotda ongli ishtirok etishi, qonun va axloqiy me'yorlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi hamda ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmasligida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik va tanqidiy tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy media esa ushbu komponentlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan kuchli axborot-kommunikativ maydon hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ijtimoiy media kontentlari bir vaqtning o'zida ijobiy tarbiyaviy imkoniyat va xavf manbai bo'lishi mumkin. U talabalarda ijtimoiy faollik, adolatparvarlik, hamjihatlik va mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirishi bilan birga, noto'g'ri axborot, manipulyativ ta'sir, soxta yangiliklar, radikal qarashlar, agressiv kommunikatsiya va yuzaki munosabatlarni ham shakllantirishi mumkin. Demak, oliy ta'limda ijtimoiy media kontentlaridan foydalanish tasodifiy emas, balki ilmiy-nazariy va pedagogik jihatdan asoslangan bo'lishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy media kontentlari va talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish o'rtasidagi nazariy-pedagogik bog'liqlikni aniqlashga qaratildi. Maqolada nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik yondashuv, kontent-tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy media, media savodxonlik, raqamli fuqarolik va ijtimoiy faollik tushunchalari o'zaro bog'liq pedagogik kategoriyalar sifatida ko'rib chiqildi. Qiyosiy-pedagogik yondashuv an'anaviy fuqarolik tarbiyasi bilan ijtimoiy media asosidagi tarbiyaviy ta'sir mexanizmlarini taqqoslash imkonini berdi. Kontent-tahlil esa ijtimoiy media materiallarining mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi, kommunikativ ta'siri va talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda fuqarolik pozitsiyasining kognitiv, aksiologik, kommunikativ va amaliy tarkibiy jihatlari ajratib tahlil qilindi. Kognitiv jihat talabaning jamiyat, davlat, huquq, qonun, burch va ijtimoiy munosabatlar haqidagi bilimlari bilan bog'liq. Aksiologik jihat uning qadriyatlar tizimi, vatanparvarlik, adolat, inson qadr-qimmatini, bag'rikenglik va ijtimoiy birdamlikka munosabatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ jihat ijtimoiy media muhitida fikr bildirish, bahs yuritish, axborot ulashish va boshqalar bilan muloqot qilish madaniyatini o'z ichiga oladi. Amaliy jihat esa talabaning ijtimoiy loyihalarda, volontyorlik tashabbuslarida, onlayn muhokamalarda va jamoatchilik hayotida faol ishtirok etishi orqali ifodalanadi.

Ushbu metodologik yondashuv ijtimoiy media kontentlarini faqat texnologik yoki kommunikativ vosita sifatida emas, balki talabalarning ijtimoiy ongiga, qadriyatlar tizimiga va fuqarolik xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omil sifatida baholash imkonini berdi. Tadqiqotda asosiy e'tibor ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda ongli munosabat, tanqidiy tahlil, axborotga mas'uliyatli yondashuv va faol fuqarolik ishtirokini shakllantirish masalalariga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy media kontentlari talabalar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda, birinchi navbatda, axborotga munosabat madaniyatini rivojlantirish orqali ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan har qanday axborot talaba tomonidan avtomatik ravishda haqiqat sifatida qabul qilinmasligi kerak. Fuqarolik pozitsiyasi shakllangan talaba axborot manbasini tekshiradi, dalil va fikrni farqlaydi, muallif pozitsiyasini anglaydi, kontentning ijtimoiy oqibatlarini baholaydi va uni tarqatishdan oldin mas'uliyatni his qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy media kontentlari bilan ishlash talabada tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va raqamli mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy media kontentlari talabalarda ijtimoiy voqelikka daxldorlik hissini kuchaytiradi. An'anaviy dars jarayonida ko'pincha fuqarolik tarbiyasi umumiy tushunchalar, qonuniy ta'riflar va nazariy ma'lumotlar orqali beriladi. Ijtimoiy media esa talabani ko'z o'ngida real hayotiy voqealarni, ijtimoiy muammolarni, fuqarolik tashabbuslarini va jamoaviy munosabatlarni aks ettiradi. Masalan, ekologik aksiyalar, xayriya loyihalari, huquqiy savodxonlik kampaniyalari, yoshlar tashabbuslari, volontyorlik faoliyati yoki ijtimoiy adolatga oid muhokamalar talabada jamiyat hayotiga befarq bo'lmaslik tuyg'usini shakllantiradi. Bunda pedagogik yondashuvning vazifasi talabani hissiy munosabatini ongli tahlil, dalillarga asoslangan fikr va amaliy harakatga yo'naltirishdan iboratdir.

Ijtimoiy media kontentlari orqali fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim nazariy asosi ijtimoiy konstruktivizm bilan bog'liq. Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxs bilim va ijtimoiy ma'nolarni faol muloqot, tajriba va hamkorlik jarayonida egallaydi. Ijtimoiy media aynan shunday muloqot maydonini yaratadi. Talaba kontentni ko'radi, unga munosabat bildiradi, boshqalarning fikrini o'qiydi, bahsga kirishadi, o'z qarashini qayta ko'rib chiqadi va ijtimoiy ma'nolarni o'z tajribasi orqali o'zlashtiradi. Shu jihatdan ijtimoiy media talabani fuqarolik qarashlarini tashqi axborot orqali emas, balki faol kommunikativ ishtirok orqali shakllantiradi. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ijtimoiy media kontentlarining aksiologik ahamiyati ham alohida o'rin tutadi. Talaba raqamli muhitda turli qadriyatlar, turli fikrlar va turli madaniy yondashuvlar bilan to'qnashadi. Bu jarayon uning qadriyatlar tizimini boyitishi, bag'rikenglikni kuchaytirishi va umuminsoniy tamoyillarni anglashiga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga zid, destruktiv yoki manipulyativ kontentlar ham uchrashi ehtimoli mavjud. Shuning uchun oliy ta'limda ijtimoiy media kontentlarini tahlil qilish jarayonida Vatanga daxldorlik, qonunga hurmat, inson qadr-qimmati, millatlararo totuvlik, ijtimoiy adolat, ma'naviy poklik va jamoaviy mas'uliyat kabi qadriyatlar pedagogik mezon sifatida olinishi lozim.

Ijtimoiy media kontentlari talabalarining huquqiy ongini rivojlantirishda ham samarali vosita bo'la oladi. Rasmiy davlat sahifalari, qonunchilikka oid tushuntiruvchi materiallar, huquqiy maslahat beruvchi videolar, infografikalar va ijtimoiy roliklar talabalarga o'z huquq va majburiyatlarini tushunishda yordam beradi. Fuqarolik pozitsiyasi kuchli bo'lgan talaba huquqni faqat shaxsiy manfaatini himoya qiluvchi vosita sifatida emas, balki jamiyatdagi tartib, adolat va mas'uliyatni ta'minlovchi ijtimoiy qadriyat sifatida anglaydi. Ijtimoiy media kontentlari asosida huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, muayyan voqealarga qonuniy baho berish va axloqiy-huquqiy xulosa chiqarish talabalarda fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy media muhitida fuqarolik pozitsiyasi faqat fikr bildirish bilan cheklanmaydi. U raqamli xulq-atvor, muloqot madaniyati va axborot tarqatish mas'uliyatida ham namoyon bo'ladi. Talaba ijtimoiy tarmoqlarda izoh yozganida, post ulashganida, bahsga kirishganida yoki biror axborotni ommalashtirganida o'zining fuqarolik madaniyatini namoyon qiladi. Shuning uchun oliy ta'limda talabalarga raqamli etikani, onlayn muloqot me'yorlarini, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni, mualliflik huquqiga rioya etishni va kiberzo'rvonlikka qarshi madaniyatni o'rgatish fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ajralmas qismidir.

Ijtimoiy media kontentlari orqali fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasini muhokama qilishda uning pedagogik imkoniyatlari bilan bir qatorda xavf omillarini ham hisobga olish zarur. Ijtimoiy media yoshlar uchun ochiq, tezkor va ta'sirchan axborot maydonidir. Bu maydon talabani ijtimoiy muammolarga yaqinlashtiradi, o'z fikrini bildirishga undaydi, muhokama va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq ayni paytda bu maydonda soxta axborot, hissiy manipulyatsiya, radikal fikrlar, tajovuzkor munosabatlar, yuzaki bahslar va ijtimoiy mas'uliyatsizlik holatlari ham mavjud. Shu sababli ijtimoiy media kontentlaridan foydalanish pedagogik nazorat, metodik yo'naltirish va tanqidiy tahlil madaniyati bilan uyg'unlashgandagina ijobiy natija beradi.

Fuqarolik pozitsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilishda demokratik ta'lim, tanqidiy pedagogika va kommunikativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik ta'lim talabani erkin fikr bildirishi, muhokamada qatnashishi va ijtimoiy qarorlar mazmunini tushunishini qo'llab-quvvatlaydi. Tanqidiy pedagogika esa talabani mavjud axborotni tayyor haqiqat sifatida emas, balki tahlil qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy matn sifatida qabul qilishini ta'minlaydi. Kommunikativ yondashuv talabani boshqalar bilan muloqotda o'z pozitsiyasini asoslash, qarama-qarshi fikrlarni hurmat qilish va ijtimoiy kelishuvga intilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy media kontentlari ushbu yondashuvlarni real raqamli muhitda amaliy jihatdan qo'llash imkonini beradi.

Oliy ta'limda ijtimoiy media kontentlaridan foydalanish talabalarining kundalik hayoti bilan tarbiyaviy jarayon o'rtasidagi masofani qisqartiradi. Talaba har kuni duch kelayotgan axborot oqimi pedagogik tahlil obyekti sifatida o'rganilganda, tarbiya jarayoni hayotiy va ta'sirchan tus oladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqda tarqalgan biror ijtimoiy tashabbus, bahsli yangilik yoki jamoatchilik muhokamasi dars jarayonida tahlil qilinsa, talaba nazariy tushunchalarni real voqelik bilan bog'laydi. U fuqarolik pozitsiyasi nima ekanini yodlab olmaydi, balki uni muayyan vaziyatda qanday namoyon etish mumkinligini anglaydi.

Ijtimoiy media kontentlarining samarali pedagogik vositaga aylanishi o'qituvchining media-pedagogik kompetensiyasiga bog'liq. O'qituvchi kontentni tanlashda uning ishonchligi, tarbiyaviy qiymati, yosh xususiyatlariga mosligi, ijtimoiy ahamiyati va muhokama imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Kontent tahlili faqat "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" degan baho bilan cheklanmasligi zarur. Talabalar undan ijtimoiy muammoni aniqlash, turli pozit-



siyalarni solishtirish, axloqiy-huquqiy baho berish, dalillar asosida fikr yuritish va shaxsiy xulosa chiqarishni o'rganishlari kerak. Ana shunday yondashuv ijtimoiy media kontentlarini fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi pedagogik resursga aylantiradi.

Ijtimoiy media orqali fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda refleksiv yondashuv ham muhimdir. Talaba ko'rgan kontent uning qarashlariga qanday ta'sir qilganini, qanday savollar tug'dirganini, qaysi qadriyatlarni qayta o'ylashga undaganini va qanday ijtimoiy harakatga sabab bo'lishi mumkinligini anglab borishi zarur. Refleksiya talabaning ichki fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi, chunki u tashqi axborotni shaxsiy e'tiqod va mas'uliyat bilan bog'laydi. Shu jihatdan ijtimoiy media asosidagi fuqarolik tarbiyasi ko'rish, o'qish yoki bahslashish bilan cheklanmaydi, balki o'zini anglash, jamiyatga munosabatni qayta ko'rib chiqish va mas'uliyatli xulq-atvorni tanlash jarayoniga aylanadi.

Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim nazariy-pedagogik masalalaridan biridir. Raqamli jamiyat sharoitida talabalar ijtimoiy voqelikni ko'p jihatdan ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, videokontentlar, onlayn muhokamalar va raqamli platformalar orqali idrok etadilar. Shu sababli fuqarolik tarbiyasini ijtimoiy media muhitidan ajratgan holda tashkil etish samarali natija bermaydi. Aksincha, ijtimoiy media kontentlarini pedagogik maqsadga yo'naltirish talabalarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy daxldorlik, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik, raqamli mas'uliyat va faol fuqarolik ishtirokini rivojlantirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy media kontentlari talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda axborotga tanqidiy munosabatni, qadriyatlarga ongli yondashuvni, raqamli kommunikatsiya madaniyatini hamda ijtimoiy-amaliy faollikni rivojlantirish orqali muhim pedagogik vazifani bajaradi. Biroq ushbu imkoniyatlar faqat kontentni puxta tanlash, uni tahliliy muhokama qilish, talabalarni refleksiv fikrlashga yo'naltirish va ijtimoiy loyiha faoliyati bilan integratsiyalash orqali samarali ro'yobga chiqadi.

Shunday qilib, ijtimoiy media kontentlari oliy ta'lim tizimida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning kuchli nazariy va amaliy resursi hisoblanadi. U talabani passiv axborot iste'molchisi emas, balki jamiyat hayotida ongli ishtirok etuvchi, o'z fikrini dalillar asosida himoya qiluvchi, qonun va axloqiy me'yorlarga hurmat bilan yondashuvchi hamda raqamli muhitda mas'uliyatli harakat qiluvchi faol fuqarolik subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida media savodxonlikni, raqamli etikani, tanqidiy tafakkurni va ijtimoiy loyiha faoliyatini integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr, O'RQ-406-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-3026246>
3. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
4. UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Second Edition of the UNESCO Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. – Paris: UNESCO, 2021. – 410 p.
5. David Buckingham. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003. – 219 p.
6. Renee Hobbs. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. – Washington, D.C.: The Aspen Institute, 2010. – 69 p.
7. Henry Jenkins, R. Purushotma, M. Weigel, K. Clinton, A. J. Robison. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. – Cambridge, MA: MIT Press, 2009. – 145 p.
8. Sonia Livingstone. "Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies" // The Communication Review. – 2004. – Vol. 7, № 1. – P. 3-14.
9. John Dewey. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
10. Paulo Freire. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970. – 183 p.
11. Jürgen Habermas. The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society. – Boston: Beacon Press, 1984. – 465 p.
12. Joel Westheimer, J. Kahne. "The Limits of Political Efficacy: Educating Citizens for a Democratic Society" // PS: Political Science & Politics. – 2006. – Vol. 39, № 2. – P. 289-296.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.